

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil).– 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Erkinov Alisher

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA
ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 5-8

Sheripova Mahliyo

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA
KOMIL XORAZMIY FENOMENI 9-14

Yusupov Xamdambek

XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYTLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI
MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR 15-19

Xo'jayeva Inobat

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA
BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK 20-26

Abdullayeva Shoxnoza

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB
NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI 27-32

Xakimov Mansurbek

OROL FOJIASI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO SIFATIDA 33-40

Xudoyorov Abrorjon

"XORAZM HAQIQATI" GAZETASIDA QISHLOQ MEHNAT AHLINING URUSH
YILLARIDAGI HAYOTI VA JASORATI MAVZUSINING YORITILISHI 41-43

Matchonova Nilufar

AMUDARYO HAVZASIDA IJTIMOYIY TARIX VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARNING
O'ZARO TA'SIRI: EFTALIYTLAR DAVRI ANTROPOGEN LANDSHAFTLARI VA
SOTSIO-EKOLOGIK MOSLASHUV (V–VI ASRLAR) 44-49

IQTISODIYOT FANLARI

Иногамова Наира

ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР УСКОРЕНИЯ ПРОГРЕССА ПО ЦЕЛЯМ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 50-54

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Diloromkhan

THE FUNCTIONAL ASPECT OF POLITICAL EUPHEMISMS IN DARI LANGUAGE
NEWSPAPER TEXTS 55-58

Akbarova Ma'suma

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY
TAHLILI 59-61

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI:
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL 62-67

YURIDIK FANLAR

Xushboqov Himoyiddin

KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARNI AUTENTIFIKATSIYA
QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI 68-74

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA
UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 75-78

Gulamov Shavkat

TALABALARDA ILMIY DALILASH VA LOGIK ARGUMENTATSIYA QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH 79-84

Yalgasheva Zilola

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING
USLUBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 85-87

Rasulova Dilafruzxon

XALQARO PEDAGOGIK ATAMALARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI 88-92

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK

Xo'jayeva Inobat Matyoqubovna

Mamun universiteti magistranti

Email: inobatxojayeva833@gmail.com

Urganch, O'zbekiston

Ilmiy maslahatchi: Abdullayev Temur

dotsent, Mamun universiteti

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya. ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida xalqaro tashkilotlar bilan, xususan, YUNESKO bilan strategik hamkorligining konseptual, huquqiy va amaliy asoslari ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotda madaniy va tabiiy meros obyektlarini muhofaza qilish, nomoddiy madaniy meros elementlarini xalqaro ro'yxatga kiritish, ta'lim sohasidagi islohotlar va YUNESKO kafedralari faoliyati, shuningdek, mamlakatning "yumshoq kuch" (soft power) salohiyatini kuchaytirish mexanizmlari qiyosiy-statistik va hujjatli tahlil usullari yordamida baholangan. Samarqandda o'tkazilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi va "Samarqand ruhi" doirasida ilgari surilgan global tashabbuslar maqolaning markaziy qismida ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan hududlar kesimida loyihalarni mutanosib taqsimlash va monitoring tizimini takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Yangi O'zbekiston, YUNESKO, madaniy diplomatiya, madaniy meros, ta'lim islohotlari, yumshoq kuch, barqaror rivojlanish.

NEW UZBEKISTAN AND UNESCO: STRATEGIC COOPERATION IN CULTURAL HERITAGE, EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Khojayeva Inobat Matyoqubovna

Master's student, Mamun University

Urgench, Uzbekistan

Scientific supervisor: Abdullayev Temur

Associate Professor, Mamun University

Urgench, Uzbekistan

Annotation. this article examines, from a scientific-analytical perspective, the conceptual, legal and practical foundations of New Uzbekistan's strategic cooperation with international organizations, in particular with UNESCO, within the framework of the country's development strategy. The study assesses, through comparative-statistical and document analysis, the mechanisms of safeguarding cultural and natural heritage sites, inscribing intangible cultural heritage elements on international lists, reforming the education system, the activities of UNESCO chairs, and strengthening the country's "soft power" potential. The 43rd session of the UNESCO General Conference held in Samarkand and the global initiatives put forward within the framework of the "Spirit of Samarkand" are considered as the central focus of the article. The author proposes practical recommendations on proportional distribution of projects across regions and on improving the monitoring system.

Keywords: New Uzbekistan, UNESCO, cultural diplomacy, cultural heritage, educational reforms, soft power, sustainable development.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n04>

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida har bir mustaqil davlat o'zining milliy manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilish, sivilizatsion o'ziga xosligini namoyon etish va inson kapitalini rivojlantirish uchun ishonchli xalqaro institutsional sheriklarga muhtoj. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan idoralari, jumladan, YUNESKO (BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti) bilan keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yish belgilangan [1; B.4–6].

Mamlakatda 2017-yildan boshlangan tub islohotlar, "Harakatlar strategiyasi" va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi [6; B.10–12.] xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjatlar madaniy merosni asrash, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish va mamlakatning sivilizatsion qiyofasini mustahkamlashni strategik vazifa sifatida belgilab berdi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda YUNESKO bilan munosabatlar formal diplomatik aloqalar doirasidan chiqib, ichki ijtimoiy-madaniy modernizatsiyaning samarali modeliga aylandi. 2025-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini Samarqandda o'tkazilishi esa bu jarayonning kulminatsion nuqtasi bo'ldi [5]. Maqolaning maqsadi — mazkur hamkorlikning tarixiy bosqichlari, huquqiy asoslari, asosiy yo'nalishlari va istiqboldagi rivojlanish vektorlarini ilmiy-tahliliy tarzda yoritishdir.

Tadqiqotda hujjatli tahlil, qiyosiy-tarixiy, statistik va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, YUNESKO rasmiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va YUNESKO huzuridagi Milliy komissiya hisobotlari, shuningdek, mavzuga oid yetakchi olimlarning ilmiy maqolalari xizmat qildi.

1. HAMKORLIKNING TARIXIY VA HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktabrda YUNESKO ning to'laqonli a'zosi sifatida qabul qilindi. Bu sana mamlakatning mustaqil tashqi siyosatidagi muhim diplomatik yutuqlardan biri bo'ldi, chunki yosh davlat dunyoning yetakchi madaniy-gumanitar institutiga qisqa muddatda kirish imkonini qo'lga kiritdi [4; B.15–17.]. 1994-yilda esa tashkilot bilan amaliy hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tashkil etildi.

1996-yilda Toshkent shahrida YUNESKO ning vakolatxonasi ochilishi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu vakolatxona Markaziy Osiyo mintaqasida YUNESKO ning birinchi to'laqonli ofislaridan biri bo'lib, mintaqada madaniy meros, ta'lim va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi loyihalarning muvofiqlashtiruvchi markaziga aylandi [2; B.171–173.].

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (PF-60-sonli Farmon, 2022-yil 28-yanvar) jami yetti yo'nalishni qamrab oladi va ulardan biri to'g'ridan-to'g'ri ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish va madaniy meros obyektlarini samarali saqlashga bag'ishlangan [1; B.7–9.]. Strategiya yuqori darajada xalqaro hamkorlikni ustuvor yo'nalish qilib belgilab, YUNESKO bilan aloqalarni huquqiy jihatdan mustahkamlashga zamin yaratdi.

Shuningdek, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida insonparvarlik qadriyatlari, sivilizatsiyalar muloqoti va madaniy meros

muhofazasi alohida o'rin egalladi [6; B.23.]. Bunday huquqiy poydevor xalqaro hamkorlikning institutsional barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

2. MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH VA MADANIY DIPLOMATIYA

Madaniy diplomatiya — bu mamlakatning o'ziga xos sivilizatsion qadriyatlari, badiiy-estetik merosi va ma'naviy yutuqlari orqali xalqaro maydonda ijobiy obrazini shakllantirish jarayonidir. Amerikalik siyosatshunos J. Nye tomonidan ilgari surilgan “yumshoq kuch” (soft power) kontsepsiyasi doirasida madaniyat, ta'lim va qadriyatlar tizimi davlatning xalqaro nufuzini oshiruvchi asosiy resurslardan biri sifatida tan olinadi [9; B.21–24.].

Hozirda O'zbekistonning beshta moddiy madaniy meros obyekti YUNESKO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan: Xiva — Ichan-qal'a tarixiy markazi (1990); Buxoroning tarixiy markazi (1993); Shahrisabzning tarixiy markazi (2000); Samarqand — “madaniyatlar chorrahasi” (2001) va “Zarafshon — Qoraqum yo'lagi” doirasidagi Ipak yo'li komponenti (2023) [2; B.176–178.]. Tabiiy meros yo'nalishida esa G'arbiy Tyan-Shan (2016) va Turonning sovuq cho'llari (2023) xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan.

Nomoddiy madaniy meros sohasida O'zbekistonning 16 dan ortiq elementi YUNESKO ning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Ular orasida “Shashmaqom” musiqiy merosi (2008, Tojikiston bilan birgalikda), Boysun madaniy makoni, “Navro'z” bayrami (ko'pmilliy nominatsiyada), “Katta ashula”, “Askiya” san'ati, “Palov” madaniyati va ananasi, “Lazgi” raqsi, baxshichilik san'ati hamda miniatyura san'ati alohida o'rin tutadi [3; B.210–214.]. 2022-yilda ushbu ro'yxatga “Ipakchilik va an'anaviy ipak ishlab chiqarish” hamda “Xo'ja Nasriddin haqidagi latifalar” elementlari ham qo'shildi.

Madaniy diplomatiyaning eng natijali shakli sifatida xalqaro festivallar, ko'rgazmalar va ilmiy anjumanlarni ko'rsatish mumkin. Bunga misol qilib har ikki yilda Samarqandda o'tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Boysun bahori” folklor festivali va so'nggi yillarda Buxoroda yo'lga qo'yilgan Hunarmandlar biennalesini keltirish mumkin. Bu tadbirlar nafaqat ichki turizmni jonlantiradi, balki YUNESKO ning butunjahon hamjamiyatidagi madaniy muloqot kun tartibiga O'zbekistonni izchil jalb etib turadi [7; B.55–58.].

Shu bilan birga, madaniy meros muhofazasi sohasida bir qator dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, hududlar kesimida YUNESKO loyihalari notekis taqsimlangan — aksariyat loyihalar Samarqand, Buxoro va Xiva viloyatlariga to'g'ri keladi, vaholanki Surxondaryo, Qoraqalpog'iston va Farg'ona vodiysidagi noyob obyektlar yetarli e'tibordan chetda qolmoqda. Shuningdek, restavratsiya ishlarining ba'zi bosqichlarida xalqaro ilmiy ekspertizalashning yetarli darajada qo'llanilmasligi haqida tanqidiy fikrlar bildirilmoqda [8; B.42–45.].

3. TA'LIM VA ILM-FAN SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish YUNESKO bilan hamkorlikning markaziy yo'nalishi hisoblanadi. 2023-yil holatiga ko'ra, respublikaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida 8 ta YUNESKO kafedrasi faoliyat yuritmoqda. Ular orasida O'zbekistondagi Xalqaro islom akademiyasi qoshidagi “Dinlararo muloqot va bag'rikenglik” kafedrasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetidagi “Madaniyatlararo muloqot” kafedrasi, Toshkent davlat texnika universitetidagi “Suv diplomatiyasi va transchegaraviy resurslarni boshqarish” kafedrasi alohida o'rin tutadi [2; B.180–182.].

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar ham YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda olib borilmoqda. 2017-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilganidan so'ng, ushbu bo'g'inga qamrov darajasi 27 foizdan 2023-yilga kelib 73 foizgacha o'sdi [10; B.18.]. YUNESKO ning texnik ko'magi bilan Toshkent shahrida Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy markaz tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, bu markaz Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun metodologik markazga aylanishi ko'zda tutilmoqda.

Oliy ta'lim sohasida muhim qadamlardan biri — 2023-yilda O'zbekistonning YUNESKO ning Oliy ta'limga oid kvalifikatsiyalarni tan olishga doir Global konvensiyasiga qo'shilishi bo'ldi. Bu hujjat milliy diplomlarni xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash, talabalar va o'qituvchilar akademik mobilligini kengaytirish hamda ta'lim eksporti salohiyatini kuchaytirish imkonini beradi [3; B.220–223.].

Inklyuziv ta'lim yo'nalishida ham bir qator amaliy qadamlar tashlangan. Alohida ehtiyojli bolalar uchun zamonaviy ta'lim platformalari yaratish, surdo va tiflo-pedagogika sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash dasturlari YUNESKO ekspertlarining tavsiyalari asosida takomillashtirildi. Shuningdek, Toshkent va Farg'ona shaharlari YUNESKO ning "O'rganuvchi shaharlar global tarmog'i" (Global Network of Learning Cities) tarkibiga rasman qabul qilindi [5].

4. "SAMARQAND RUHI": YUNESKO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIYASI

2025-yil 30-oktabrdan 13-noyabrgacha Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazildi. Bu tashkilotning so'nggi 40 yil ichida o'zining doimiy qarorgohi Parijdan tashqarida o'tkazilgan birinchi Bosh konferensiyasidir [4; B.30.]. Sessiyada YUNESKO ning 194 a'zo davlatidan 3 mingdan ortiq vakil, jumladan, davlat va hukumat rahbarlari, vazirlar, taniqli olim va ijodkorlar ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sessiyaning ochilish marosimida nutq so'zlab, "Samarqand ruhi" kontseptsiyasi doirasida bir qator global tashabbuslarni ilgari surdi. Mazkur tashabbuslar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Samarqand shahrida Raqamli meros xalqaro institutini tashkil etish — bu institut moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish, virtual ekspozitsiyalar yaratish va raqamli arxivlash sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'ladi [5].

Ikkinchidan, YUNESKO ning Xotin-qizlar yetakchiligi akademiyasini ta'sis etish — akademiya rivojlanayotgan mamlakatlardagi yosh ayollar uchun yetakchilik va siyosiy ishtirok bo'yicha xalqaro malaka oshirish markaziga aylanishi rejalashtirilgan. Uchinchidan, "Sun'iy intellekt — maktab" pilot loyihasini ishga tushirish — loyiha o'rta umumiy ta'lim maktablariga sun'iy intellekt asoslarini joriy etish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va inklyuziv ta'lim uchun adaptiv platformalar yaratishni nazarda tutadi.

To'rtinchidan, 19-noyabrni Xalqaro hujjatli meros kuni deb e'lon qilish bo'yicha taklif Bosh konferensiya tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Mazkur sana "Jahon xotirasi" dasturining ramziy kuni sifatida belgilanib, qo'lyozma manbalar, noyob hujjatlar va arxiv merosini saqlashga xalqaro e'tiborni qaratish maqsadini ko'zlaydi [5; 7; B.61.].

43-sessiya doirasida shuningdek, Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Hujjatda madaniyatlararo muloqot, iqlim o'zgarishi sharoitida madaniy meros muhofazasi, raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimini moslashtirish kabi global muammolarga doir qator

strategik tavsiyalar o'z aksini topdi. Bu hujjat keyingi olti yillik dasturiy davrda YUNESKO faoliyatining konseptual asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

5. IQLIM O'ZGARISHI VA EKOLOGIK MADANIYAT KONTEKSTIDA HAMKORLIK

Global iqlim o'zgarishi — XXI asrning eng jiddiy sinovlaridan biri bo'lib, u nafaqat tabiiy ekotizimlarga, balki tarixiy madaniy meros obyektlariga ham bevosita tahdid soladi. Markaziy Osiyo mintaqasi BMTning baholashlariga ko'ra, iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rish mumkin bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi: havoroning isish jadalligi global o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar yuqori [11; B.8–10.].

Shu sababli madaniy meros obyektlarini iqlim o'zgarishidan himoya qilish O'zbekiston uchun ustuvor vazifa qilib belgilangan. Samarqandda YUNESKO ning 80 yilligi munosabati bilan barpo etilgan “Yashil bog” majmuasi ekologik innovatsiyalar markaziga aylantirilishi ko'zda tutilgan [5]. Bu majmuada quyosh energiyasidan foydalanish, suv resurslarini tejoychi sug'orish texnologiyalari va karbon iz kamaytirish bo'yicha amaliy tajribalar olib boriladi.

Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “YUNESKO ning ekologik poytaxti” tashabbusi va Xiva shahrida iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan xalqaro simpozium o'tkazish rejasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi. Mazkur tashabbuslar Orol fojiasidan keyingi ekologik tiklanish jarayonida O'zbekistonni mintaqaviy lider sifatida tan olinishiga xizmat qiladi [8; B.50–52.].

6. MAVJUD MUAMMOLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Shuncha katta yutuqlarga qaramay, YUNESKO bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish uchun bir qator masalalarga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, hududlar kesimida YUNESKO loyihalarining notekis taqsimlanishi tendentsiyasi saqlanib qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2018–2024-yillar davomida amalga oshirilgan loyihalarning qariyb 68 foizi uchta viloyatda — Samarqand, Buxoro va Xorazmda — to'plangan [8; B.43.].

Ikkinchidan, moddiy va nomoddiy meros obyektlari atrofidagi turizm infratuzilmasini rivojlantirishda obyektlarni asrash va kommertsiyalashtirish o'rtasidagi mutanosiblik masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Uchinchidan, monitoring tizimi yetarli darajada raqamlashtirilmagan: ko'pgina obyektlar holatini real vaqt rejimida kuzatish va xavf-xatarlarni oldindan aniqlash imkoniyatlari cheklangan.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: (a) regional balansni ta'minlash uchun maxsus “Periferiya merosi” dasturini ishga tushirish va Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Namangan viloyatlaridagi obyektlar uchun ustuvor moliyalashtirish kanalini joriy etish; (b) har bir Butunjahon merosi obyekt uchun yagona elektron “meros pasporti” tizimini joriy etish; (c) GIS-texnologiyalar asosida iqlim risklari kartasini yaratish; (d) restavratsiya ishlariga xalqaro auditorlarni majburiy jalb qilish tartibini huquqiy mustahkamlash [7; B.65.].

XULOSA

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi hamkorlik so'nggi yillarda formal diplomatik aloqalar doirasidan chiqib, mamlakatning ichki ijtimoiy-madaniy modernizatsiyasining samarali modeliga aylangan. Hamkorlikning beshta moddiy va o'n oltidan ortiq nomoddiy meros obyektlarini xalqaro ro'yxatga kiritish, 8 ta YUNESKO kafedrasini tashkil etish va “O'rganuvchi shaharlar tarmog'i”ga qo'shilish kabi natijalari mamlakatning sivilizatsion qiyofasini kuchaytirgan.

Samarqandda o'tkazilgan 43-sessiya va u doirasida ilgari surilgan global tashabbuslar — Raqamli meros instituti, Xotin-qizlar yetakchiligi akademiyasi, “Sun'iy intellekt — maktab” loyihasi, Xalqaro hujjatli meros kuni — O'zbekistonning xalqaro madaniy diplomatiyadagi yangi sifat darajasini ko'rsatadi va mamlakatning “yumshoq kuch” salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Kelgusida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun loyihalar qamrovini hududlar bo'yicha mutanosib taqsimlash, barqaror va inklyuziv turizm tamoyillarini izchil joriy etish, monitoring tizimini raqamlashtirish va xalqaro ilmiy ekspertizani kuchaytirish strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlardagi izchil ish O'zbekistonni nafaqat madaniy meros sohasida, balki global barqaror rivojlanish kun tartibida ham yetakchi mamlakatlardan biriga aylantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. — Toshkent: Adolat, 2022. — 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida. — Toshkent, 2023. — 48 b.
3. Abdurahmonov A. Madaniy meros muhofazasi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik // Tarix va zamonaviylik. — Toshkent, 2024. — № 3. — B. 38–52.
4. Azizov B. Madaniy diplomatiya va yumshoq kuch nazariyasi: O'zbekiston tajribasi misolida. — Toshkent: Akadernashr, 2023. — 196 b.
5. Islom Karimov ilmiy-ma'rifiy majmuasi materiallari. “O'zbekiston va YUNESKO hamkorligining yangi, zamonaviy bosqichi”. — Toshkent: Ma'naviyat, 2025. — 124 b.
6. Isroilova Z.A. Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatlari YUNESKO va YUNISEF bilan hamkorligi // Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya — Mudarris Ziyos. — 2026. — Jild 5, Nashr 01. — B. 170–188.
7. Isroilova Z.A. Yangi O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi: madaniy meros, ta'lim va barqaror rivojlanish yo'nalishlari // Journal of Education, Ethics and Value. — 2026. — Vol. 5, No. 02. — P. 203–231.
8. Karimova D. O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash muammolari // O'zbekiston tarixi. — Toshkent, 2023. — № 4. — B. 41–55.
9. Nye J.S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. — New York: Public Affairs, 2004. — 192 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. “O'zbekiston Prezidenti UNESCO doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi”. — Samarqand, 2025. — URL: <https://president.uz> (murojaat sanasi: 15.11.2025).
11. UNDP. Human Development Report 2024: Climate Change and Central Asia. — New York: United Nations Development Programme, 2024. — 312 p.
12. UNESCO. Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention. — Paris: UNESCO World Heritage Centre, 2023. — 178 p.
13. UNESCO. Records of the General Conference, 43rd Session, Samarkand, 30 October – 13 November 2025. — Paris: UNESCO Publishing, 2025. — Vol. 1: Resolutions.
14. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. — Тошкент: Университет, 2005. — 388 б.
15. Юлдашев Ш. Самарқанд декларацияси ва Марказий Осиёда маданий ҳамкорликнинг истиқболлари // Шарқшунослик. — Тошкент, 2026. — № 1. — Б. 22–37.

16. Rakhmonov, Abduqahhor, Oltinoy Masalieva, Amanlik Gulimov, Olimjon Xolov, Mardonbek Rajapov, Nodira Khodjaeva, Timur Mukhamadiev, and Olimjon Gaimnazarov. "The Impact of Social Media on Political Participation and Democratic Engagement among Youth in Emerging Economies." Archives for Technical Sciences 33, no. 2 (2025): 1071-1080.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil). – 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.